

Date: 7<sup>th</sup> April-2026

## MA'NAVIYAT INSONNING HISSIY HAMDA AQLIY DUNYOSIGA TA'SIRI

Avazova Xushro'ybibi Kamoltdin qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Annotasiya.** Ushbu maqolada ma'naviyatning inson hissiy dunyosiga ta'siri undagi munosbatlar va shu munosbatlar orqali insonning alqiy dunyosiga ham ta'sir etishiga bag'ishlangan.

**Kalit so'zlar:** Ma'naviy ong, ma'naviy ongning ikki darajasi, kundalik daraja, nazariy daraja, hissiy hodisalar, aqliy hodisalar, birlamchi qadriyatlar, inson tuyg'ulari, ko'ngil olami, inson ko'ngli, tuban tuyg'ular, nafs, tafakkur erkinligi.

Ma'naviyat inson ongining voqeligi, turli sohalarda va vaziyatlarda uning xulqini belgilovchi qadriyatlar, ijtimoiy mo'ljallar tizimi sifatida shaxsning hissiy (emotsional) va aqliy (intellektual) dunyosidan tashkil topgan. Falsafa ilmidan ma'lumki, ongning ikki darajasi - kundalik ong va nazariy ong mavjud bo'lib, kundalik ong insonda ro'zg'or va maishiy turmush, mehnat, hayotiy tajriba, ishlab chiqarish ko'nikmalari, odamlar bilan aloqalar, ishda va ishdan tashqaridagi turli-tuman iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy, siyosiy munosabatlar ta'sirida hosil bo'lgan har xil tushunchalar, oddiy hayotiy qarashlar, tasavvurlar va barqaror tuyg'ulardir. Nazariy ong unda o'qish, bilim olish, fanlarni, turli ta'limotlarni o'rganish, tabiat va jamiyat hodisalarini ilmiy tahlil qilish, umumlashtirish jarayonida hosil bo'lgan g'oyalar, tushunchalar, baholar, meyorlar, ilmiy qarashlar, ta'limotlar, nazariyalar tizimidir. Insonni dastlab o'zini tutishiga, odob-axloqiga qarab baholaymiz va uni yaxshiroq va yaqindan o'rganish davomida, uning bilimiga, dunyoqarashiga, asl insoniy fazilatlariga e'tibor qaratamiz. Inson o'z hayoti va faoliyatida amal qiladigan oddiy, birlamchi qadriyatlardan (ibo, hayo, uyat, to'g'rilik, halollik) eng murakkab qadriyatlargacha (ezgulik, go'zallik, tolerantlik, burch, fidoyilik, o'zlikni anglash, milliy manfaatlarni himoya qilish, vatanparvarlik) ongning ikki darajasiga taalluqli. Faqat kundalik ong ularga doimo uzluksiz, ammo sayozroq, nazariy ong esa uzlukli, nomuntazam, faqat zarur hollarda, ammo teranroq ta'sir ko'rsatadi, inson ko'proq o'z fikri va qarashlarini asoslayotgan, mushohada yuritayotgan, ko'rgan-eshitgan narsalarini tahlil qilib, ularga o'zining faol munosabatini bildirayotgan damlarda, kimlar bilandir bahsga kirishayotganda yoki birgalikda masalani muhokama qilayotganda, nazariy ong yuzaga chiqadi, kundalik va nazariy ong o'rtasida qat'iy chegara o'tkazish mumkin emas. Ular o'zaro uzviy bog'langan, bir-birini boyitib, to'ldirib, ba'zan to'g'rilab, tuzatish kiritib turadi. Inson ma'naviyatini kundalik va nazariy darajadan tashqari hissiy va aqliy hodisalarga bo'lish mumkin. Ibo, hayo, uyat, halollik, mardlik, to'g'riso'zlik, rahmdillik yoki ularning muqobillari - behayolik, qo'rqqoqlik, yolg'onchilik, bag'ritoshlik va shu kabi oddiy tushunchalarning inson tuyg'ulari, hissiy dunyosi bilan bog'liqligi shundoqqina bilinib turibdi. Burch, vijdon, diyonat, vatanparvarlik, ezgulik kabi tushunchalarning hissiy jihatlari unchalik ko'zga tashlanmasada, lekin mavjud, ammo oddiy tushunchalarnikidan



Date: 7<sup>th</sup> April-2026



teranroq. Masalan, vatanparvarlik tug‘ilgan joyini, ona tuprog‘i, Vatani urf-odatlari, ona tilini, xalqini yaxshi ko‘rishdan, o‘zini ularning bir bo‘lagi deb his qilishdan boshlanadi. Inson biror muddat uzoqroq joyga, ayniqsa, xorijga ketib qolsa, tug‘ilgan joyini, bahorini, dala-qirini, xalqining hangomalari, qo‘shiqlarini sog‘inadi, ya‘ni vatanparvarlik avvalo tuyg‘u sifatida yuzaga chiqadi. Ikkinchi misol: chiroyli, nozik latifadan, hazilmutoyibadan zavqlanasiz yoki adolatsizlik, qo‘rqoqlik, xoinlik g‘azabingizni keltiradi. Bular insoniy tuyg‘ulardir, inson tuyg‘ulari juda nozik, ayni paytda, juda qudratli, ba‘zan inson aynan tuyg‘ulari tufayli jasorat, qahramonlik ko‘rsatadi. Inson tuyg‘ulari juda rang-barang bo‘lib ular o‘zaro bog‘liq, birgalikda uning hissiy olamini tashkil qiladi. Insonning yuksak hissiyoti, tuyg‘ulari ko‘pincha ko‘ngil yoki ko‘ngil olami deb ataladi. Demak, inson ko‘ngli uning yuksak tuyg‘ularidan iborat. Ongsizlik haqida gap ketganda, albatta, ularning individual va jamoaviy shakllarini bir-biridan farqlash kerak. Individual ongsizlik doimo konkret, aniq shaklda turli kishilarda har xil namoyon bo‘ladi. U shaklan rang-barang, ammo mazmunan sayoz bo‘lib jamoaviy ongsizlik esa mazmunan teran, chuqur, lekin shaklan kambag‘al. Jamoaviy ongsizlik g‘alayonlar, ommaviy tartibsizlik va vahimalar, ommaviy jo‘shkinlik va olqishlar, ko‘r-ko‘rona sig‘inishlar va ommaviy fidoyilik ko‘rinishida yuzaga chiqishi mumkin. Ba‘zan individual tashabbus bir guruh kishining nooqilona, instinktiv harakatiga turtki bo‘ladi. Masalan, ko‘proq yoshlar orasida bir kishi boshlagan aksilijtimoiy harakatga, jinoiy ishga yonidagilar qo‘shiladi. Aslida, ularda jinoyat qilish niyati bo‘lmagan, ammo jamoaviylik instinkti, psixologik jo‘shqinlik o‘sha vaziyatda bunga undagan: boshqalardan ajralib qolmasligi, boshqalar uni qo‘rqoqlikda ayblamasligi uchun o‘sha ishga qo‘shilgan. Biroq, shuni ta‘kidlash lozimki, guruhij jinoyatlar orasida uyushgan jinoyatchilik psixologik jo‘shqinlik oqibati emas. Uyushgan jinoyatchilik asosida ma‘lum bir g‘arazli maqsadni birgalikda amalga oshirish yotadi, u jamoaviy ongsizlik ko‘rinishi emas. Tasodifiy guruhij jinoyat esa jamoaviylik instinkting, jamoaviy arxetipning salbiy ko‘rinishlaridan biridir. Jamoaviy arxetipning ijobiy ko‘rinishidan biri jangda, o‘q yomg‘iri ostida o‘limdan ko‘rqmasdan yovga birgalikda tashlanishdir. Insonning tarixiy xotirasida, ongi ostida “qo‘rqoqlik qilib qochsang, yov hammangni bitta-bitta qirib tashlaydi, yoppasiga hamla kilsang, bir qisming omon kolasan”, degan tajriba xulosasi muhrlanib qolgan. Insonning aqliy dunyosini tashkil etuvchi unsurlar. G‘oyalar, tushunchalar, baholar, meyorlar, mulohazalar, qonunlar, nazariyalar, ta‘limotlar, ideallar insonning aqliy dunyosini tashkil etadi. Jamiyat miqyosida u ijtimoiy ideologiya (mafkura) deb ataladi, uning negizida insonning his-hayajoni va tuyg‘ulari emas, balki tafakkuri yotadi. Tafakkur olamni bilishning tizimli va samarali shaklidir, tafakkur g‘oyalar, tushunchalar, fikrlar, mulohazalar, xulosalar yordamida obyektiv voqelikning turli belgilari, shakllari, mazmuni, ichki xususiyatlarini, narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqalar, o‘zaro ta‘sirlar va shu kabi boshqa munosabatlarni aks ettiradi, ularni umumlashtiradi, guruhlarga, sinflarga va tizimlashtirishning boshqa shakllariga bo‘ladi. Rus faylasufi N.A. Berdyayev ta‘kidlaganidek, tafakkur inson bilimlarining manbaidir, tafakkur yordamida inson o‘z borlig‘ini, hayotini, yashash sharoitini o‘zgartiradi. Ijobiy histuyg‘ularsiz, qalb kechinmalari, zavq-shavqi, iztiroblari, yuksak parvoztarisiz tafakkur xudbin merkantillikni mo‘ljol olishi, mehr-oqibatni,

Date: 7<sup>th</sup> April-2026



insoniylikni yetarlicha hisobga olmasligi mumkin. His-tuyg'ular tafakkurga rahmdillik, hamdardlik va boshqa insoniy fazilatlar bag'ishlaydi. Agar hissiyotda qahrg'azab, nafrat, nafs, hirs ustunlik qilsa, qalb qashshoq bo'lsa, tafakkur zo'ravonlikka, o'ch olishga, jazolashga, boylik orttirishga ko'rsatadi. Tafakkur ijobiy mazmundagi hissiyotga tayansa, salbiy his-tuyg'ularni jilovlaydi. Shunday qilib, hissiyot va tafakkurning o'zaro ta'siri ikki tomonlamadir. Bundan tashqari, ular o'rtasida qat'iy chegara o'tkazilishining o'zi qiyin. His-tuyg'ular, ayniqsa, murakkab his-tuyg'ular insonda fikr uyg'otadi. U his-tuyg'ularining sababini, obyektini tahlil qila boshlaydi, umumlashtiradi va xulosalar chiqaradi. O'z navbatida, voqea, obyekt xususiyatlarini, ular asosida yotgan g'oyalarni, ilmiy-texnik yoki badiiy yechimlarni tushunish insonda yana yuksak tuyg'ularni, zavq-shavqni tug'diradi. Masalan, shaxmat o'yinidagi kombinatsiyani, yechimni tushungan kishi undan zavqlanadi. Yoki murakkab inshootning original arxitektura-injenerlik yechimini tushungan kishi ham zavq-shavq tuyadi. Oddiy nomutaxassis kishi badiiy, ilmiy-texnikaviy ijodning ko'proq tashqi go'zalligidan zavqlansa, mutaxassis - ushbu sohada tegishli bilimlarga, tafakkurga ega odam esa, uning ichki intellektual tomonlaridan, nozik yechimlari nafosatidan ham teran ta'sirlanadi. Shunday qilib, insonning hissiy-emotsional va aqliy-intellektual olami bus-butun, yaxlit tizimdir. Tafakkur – inson aqliy faoliyatining yuksak shakli; ob'yektiv voqelikning ongda aks etish jarayoni bo'lib atrof muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy sharti sanaladi. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur – inson miyasining alohida funksiyasi bo'lib uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Ba'zi bir umuminsoniy qadriyatlarni, talablarni tushunishda muayyan farq bo'lsa-da, baholash tamoyillari va mezonlari asrlar davomida mohiyatan o'zgarmasligi mumkin. Lekin turli davrlarda insonning tafakkur tarzi, tafakkur va erkinlikning konkret ilmiy-gnoseologik, aksiologik tamoyillari va mezonlari sezilarli o'zgaradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023 yil.
2. Shavkat Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1 jild. – T.:O'zbekiston, 2018 yil. 504-538 betlar.
3. Shavkat Mirziyoyev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. – T.: 2018 y. 136-146; 176-221 betlar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008 yil. 6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Nodir va dono fikrlar. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2004 yil.
5. Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar izohli lug'ati. – T.: G'afur G'ulom nashriyoti, 2009 yil.